

Date: 1st November-2025

**O'ZBEK QISSACHILIGIDA BAIYY PSIXOLOGIZM VA PSIXOLOGIK TASVIR
VOSITALARI.**

Ismoiljonova Nilufar Qahramonjon qizi

Namangan davlat universiteti magistri

nilufarxonobidovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy psixologizm va uning badiiy asarda qo'llanilishi, o'zbek adabiyoti qissachiligida inson ruhyati yoritilishi va psixoanalizning rivojlanish tamoyillari o'rganiladi.

Аннотация: В данной статье изучаются художественный психологизм и его использование в художественном творчестве, освещение человеческого духа в новелле узбекской литературы, принципы развития психоанализа.

Annotation: In this article, artistic psychologism and its use in artistic work, the illumination of the human spirit in the short story of Uzbek literature, and the development principles of psychoanalysis are studied.

O'zbek adabiyoti XX asrda qator yangilanishlarni boshdan kechirdi. Yozuvchilarimiz mumtoz adabiyot an'alarini davom ettirish bilan birga jahon adabiyotining hayotbaxsh tajribalarini ham o'z ijodlariga singdira boshladilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta"²³. Istiqlool arafasi va undan keyingi davr adabiyotida bu xususiyat yanada kuchayganligini qissa janri namunalari misolida ham ko'rish mumkin. XX asr davomida qissa shakli, ifoda usullari juda ko'p o'zgarishlarga duch kelsa-da, inson talqini uzoq vaqt o'zgarishsiz qoldi. Faqat, asr so'ngiga kelibgina, ijodkorlarimiz insonni anglash, uni bor-bo'yicha tasvirlash borasida mafkuraviy tazyiqlardan xalos bo'ldi.

XX asrning so'nggi choragida yaratilgan o'zbek qissalarida voqelikni falsafiy-ruhiy tahlil qilish, qahramon ruhiyatining tubsiz va qorong'u qatlamlariga nazar tashlash, inson umrining mazmun-mohiyati haqida chuqur mulohaza yuritish tamoyili kuchaydi. O'zbek qissachiligida Murod Muhammad Do'st, Tog'ay Murod, Erkin A'zam, Xayriddin Sultonov, G'affor Hotamov, Xurshid Do'stmuhammad kabi navqiron avlod vakillari bo'y ko'rsatdi. Ularning asarlarida milliy o'zlikni saqlab qolishni burch deb bilgan, ayni paytda, yashashning ma'nosini va inson qalbi sirlarini anglashga intilayotgan, achchiq turmush goh ezib, goh chetga chiqarib qo'ygan, o'zini tinimsiz taftish etayotgan qahramonlar paydo bo'ldi. Qahramonlar tabiatidagi bunday "ichki faollik" qissachilikda psixologik asosni quyulashtirdi.

²³ Каримов И. Юксак маънавият — енгилмас куч. —Т.: Маънавият, 2008. — Б. 136.



Date: 1st November-2025



Psixologiya sohasida o'z maktabini yaratgan olim S.L.Rubinshteyn badiiy asarda inson ruhiyatining tasviri borasida shunday deydi: "Ichki hayoti bilan hisoblashib yashovchi har qanday odam bosib o'tgan yo'lini tahlil qilish uchun ortga qarar ekan, ongida umrining alohida betakror, shukuhli onlari yorqin kechinmalar sifatida chuqur iz qoldirganligi bilan bog'liq xotiralar uyg'onadi. Qahramon psixologiyasini tasvirlar ekan, so'z rassomlari aynan uning kechinmalari – o'sish-kamolotga erishishdagi individual yo'lini hayotining burilish pallalari sifatida yoritishga intilishlari bejiz emas. Ittifoqo, inson kechinmalari – bu uning real hayotining subyektiv tomoni, shaxs umr yo'lining subyektiv aspektidir"²⁴.

O'zbek qissachiligida inson ruhiyatining qorong'u puchmoqlariga nazar solish borasida o'tgan asrning 80-yillari tub burilish yillari bo'ldi. Avvalgi yillar qissachiligida asosan davr g'oyalarini tashiydigan, socialistik realizm aqidalariga muvofiq keladigan, har sohada fidokor, avvalo o'zi va o'zligini emas, omma manfaatlarini o'ylaydigan qahramonlar guruhi yaratilgan bo'lsa, keyingi yillar qissachiligining qahramonlari umum tarbiyasi bilan shug'ullanmay, o'zlikni rasolash yo'lga o'ta boshladi. Adiblarimiz an'anaviy qissachiligimizda qo'llanib kelingan ichki monolog, o'y-mulohaza, g'azab, xatti-harakatdagi ritmik o'zgarish kabi inson psixologiyasida yuz beradigan holatlarni o'ziga xos bir yo'sinda tasvirlash yo'lga o'tdilar.

Adabiyotda psixologik tahlil o'rni qanchalik muhim? Keyingi davrlarda insonni anglash, uning ruhiyatini idrok etish, insonning ichki olamiga kirib borish keng o'rinni egallayapti. Bu esa bevosita inson psixologiyasi bilan bog'liq. Shuning uchun ham badiiy adabiyotda psixologik tahlil muhim o'rin egallaydi.

Inson ruhiyatini ochib berishda turli vositalardan foylaniladi. Masalan, inson xatti-harakatlari, uning fikrlar oqimi, yuz ifodalari orqali ochib beriladi. Asarni tahlil qilishda jest, mimika (imo-ishora, yuz ifodalari) ning o'rni katta.

Insoniyat yaratilgan davrlarda, hali insonlar so'zlashishni bilmagan zamonlarda aloqa vositasi sifati jest va mimika (imo-ishora, yuz ifodalari) muhim aloqa vositasi vazifasini bajargan. Hozirgi kunda ham og'zaki nutqda imo-ishora muhim kommunikativ vazifani bajaradi. Yuz ifodalari so'zdan ko'ra insonga ko'proq, kuchliroq ta'sir qiladi. Insonlar bir-biriga so'zlar vositasida aytolmagan gaplarini imo-ishora orqali bayon etishadi.

Badiiy adabiyotda ham imo-ishoralardan unumli foydalanish asarni o'qishligini ta'minlashda, obrazlar xarakterini ochib berishda muhim psixologik unsur hisoblanadi. Asarda yuz ifodalarini o'zgarishini kiritish asarni tasirchanligini oshirishga, o'quvchi ko'z ongida qahramon ruhiy holatini tasavvur qilishga yordam beradi. Hattoki, so'zlar bilan ifodalab berolmagan his-tuyg'u yuz ifodasi orqali yanada ta'sirchan tarzda o'quvchiga yetkazib beriladi. Birgina kulish, tabbassum qilish yuz ifodasi orqali insonda kechayotgan turli ruhiy kechinmalarni ifodalash mumkin. Inson asosan baxtiyorligidan kulishi mumkin, ammo har doim ham bunday emas. Inson g'azablanganda, iztirob chekkanda, qalbi og'riganda, ajablanganda va boshqa vaziyatlarda kulishi mumkin. Og'zaki muloqotda yoki

²⁴ Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2000. – С. 13.

Date: 1st November-2025



drammatik sahna asarlarida inson tabbassumi sababi ko`rinib turadi. Ammo yozma adabiyotda imo-ishorani so`zlar vositasida yetkazilib beradi. Masalan, kulmoq so`zi inson ruhiyatiga qarab turli sinonimlardan foydalaniladi. Tabbassum qildi, qotib-qotib kuldi, miyig`ida kulib qo`ydi, tabassum qildi, iljaydi, tirshaydi kabi so`zlar bilan ifodalandi. Yuz ifodalariga ko`z, qosh, lab harakatlari kiradi. Masalan ko`zini olib qochishi, uzoq tikilib qolishi, ko`zini qisib qo`yishi, qoshini uchirishi, qoshini chimirishi, qovog`ini uyib olishi, labini qimtishi, labini tishlashi, peshonasini tirishtirishi kabi ko`plab yuz ifodalari inson ruhiyatini ochib berishda muhim vosita hisoblanadi. Yozuvchining bu vositalardan keng va o`rinli foydalana olishi uning mahoratidan darak beradi. Adabiyotshunos olim esa bu o`rinlarni ilg`ab, tahlil qila olishi lozim.

Badiiy psixologizmga bo`lgan qiziqish o`sib borishi va pasayib ketishini adabiyotshunoslar, haqli tarzda, shaxsning hayot va san`atdagi ijtimoiy-estetik qadriyatlar haqidagi tasavvurlari o`zgarishi bilan bog`lashadi. Demak, psixologik tahlil insoniyat badiiy taraqqiyotining qiyosan yuksak darajasida yuzaga keladi va faqat muayyan ijtimoiy-estetik sharoitdagina bo`y ko`rsatadi.

Ushbu muammo shunisi bilan qiziq va estetik ahamiyatli, shaxsning ruhiy hamda bir vaqtning o`zida davr va jamiyat qarama-qarshiliklarini, konfliktlarini aks ettiruvchi ichki ziddiyatlari aynan psixologizm orqali yaqqol ochiladi, namoyon bo`ladi. Inson adabiyotda xarakter sifatida, alohida fe`l-atvor va muomala, hissiyot va fikr egasi bo`lgan tip sifatida namoyon bo`ladi.

Psixologizm **bevosita** – muallif mulohazasi yoki qahramonlarning o`z-o`zini tahlil qilishi shaklida va yoki **bilvosita** – qahramonlar mimikasi, xatti-harakatini ko`rsatish formasida amalga oshiriladi.²⁵

“Psixologizm” va “psixologik tahlil” tushunchalari qisman bir-birini to`ldirib kelsalar-da, to`la ma`noda sinonim emasliklari va mazmun jihatdan bir xil emasliklari tufayli ularni farqlash lozimligi shu masalaga bag`ishlangan aksariyat tadqiqotlarda ta`kidlangan. Aslida ham “psixologizm” tushunchasi “psixologik tahlil”dan ko`ra kengroq, u masalan, muallif psixologiyasining asardagi aksini ham aks ettiradi. Bunday ta`rifni, inson ruhiyatini ochish vositalari majmuidangina iboratligi, shuningdek, o`zi yo`nalgan obyektning mavjudligini taqozo etishi nuqtai nazaridan psixologik tahlilga nisbatan ishlata olmaymiz.

Bizningcha, yozuvchilarning ruhiy tahlil bobidagi mahoratini belgilashda mazkur ta`riflardan aynan ikkinchisi dominantlik qiladi. Aynan shu xususiyat u yoki bu badiiy asar yaratilishi qonuniyatlarini va psixologik tipologiyasini o`rganishda qo`l keladi. Bu haqda R.Uellek va O.Uorrenlarning “Adabiyot nazariyasi” kitobida ham ta`kidlab o`tilgan. Ular yozishlaricha, “adabiyot psixologiyasi” termini ostida har xil narsalar: yozuvchining tip va, bir vaqtning o`zida, betakror individ sifatidagi shaxsini ruhiy tahlil qilishni; ijodiy jarayonni o`rganishni; u yoki bu badiiy asar yaratilishining psixologik tipologiyasi va

²⁵ Dilafró'z Jabborova. “O`zbek qissalari poetikasi” Samarqand – 2021

Date: 1st November-2025



qonuniyatlarini o'rganishni; va nihoyat, adabiyotning kitobxonga ta'sirini (kitobxonlar psixologiyasi) tushunish mumkin²⁶. Demak, psixologizm va psixologik tahlil biror-bir yozuvchi asarining yuzaga kelish jarayoni, uning yaratilish qonuniyatlari kabi masalalarni o'rganishda qo'l kelishi jihati bilan nazariy muammo sanaladi.

Psixologizm yuzaga kelishi uchun jamiyat hayotida madaniy rivojlanish darajasi yuqori bo'lishi talab etiladi, biroq, eng asosiysi, mazkur taraqqiyot mobaynida insonning betakror shaxsi qadriyat sifatida tan olinishi zarur. Insonni bunday tushunish shaxsning ichki dunyosini o'zlashtirish va anglash borasida psixologizm o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarila olgan XIX asrga kelibgina amalga oshdi. Bu qonuniyat oradan o'tgan vaqt mobaynida turli-tuman o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, bugun ham yashab kelmoqda.

Adabiyotshunos olimi L.Ya.Ginzburg ta'kidlaganidek, bu taxlit psixologizm personaj ichki dunyosining rasional ravishda soddalashtirib tasvirlanishi bilan baqamti emas. Uning fikricha, "adabiy psixologizm qahramonning o'zini tutishidagi xayolga ham kelmagan, nogahoniy, tasodifiy qarama-qarshiliklardan boshlanadi"²⁷.

Bizning davrimizga kelib psixologizm qator badiiy asarlar qiyofasida o'zining yangi va yanada original formasiga ega bo'ldi. Adabiyotda "ong oqimi"ni tasvirlash, aks ettirish deb ataladigan alohida badiiy prinsip muqimlashdi. Bu holat istiqlol arafasida yaratilgan o'zbek qissalari uchun ham xosdir.

Ruhiiy tahlil hodisasi qanchalik qadimiy, doimiy, koinot kabi sirli bo'lsa-da, insoniyatning alohida shaxs kechinmalariga munosabati tarixi, erishilgan tajribalari yuzasidan ko'plab izlanishlar olib borish mumkin.

Badiiy psixologizm – adabiyotshunoslikning o'ziga xos kategoriyasi bo'lib, unga bo'lgan qiziqishning ortishi insoniyatning tarixan taraqqiy etib kelayotgan jahon adabiyotini o'z ma'naviy-ruhiy olami ifodasi sifatida tasavvur etishi bilan shartlanadi. Adabiy jarayon dinamikasi badiiy psixologizm dinamikasini shartlantiradi, bu inson va dunyo haqidagi tasavvurlar, ularni badiiy jonlantirish metodlari murakkablashayotgani bilan bog'liqdir. Adabiy qahramon zamonaviy adabiyotda zohiran tasvirlanish o'rniga jonli uzluksiz muloqot tarzida, impuls va holatlar oqimi yoki "niqoblar kaleydoskop"i sifatida qayta jonlanish uchun bora-bora tipiklashgan, oddiylashgan, individuallashtirilgan personajga aylana bormoqda.

Bugungi kunda badiiy asarni turli rakurslardan turib talqin etishga imkon beradigan metodlardan samarali foydalanilmoqda. Psixoanaliz, xarakterologiya, patopsixologiya, psixopoetika, genderologiya, narratologiya kabi insonshunoslik sohalarining har biri inson ichki olamini tasvirlashning yangi versiyalarini taklif qilmoqda. Shunday ekan, bunday turli-tuman metodologiyalarning adabiyotdagi psixologik tasvir tamoyillari rivojiga ta'siri borasidagi imkoniyatlarini to'g'ri baholay olish juda muhimdir.

Adabiyotda inson ichki dunyosining chuqur badiiy tadqiqi "badiiy psixologizm" deb ataladi. Psixologizm badiiy adabiyotda uch asosiy ko'rinishda: adabiyotning tug'ma

²⁶ Уэллек Р. и Уоррен О. Теория литературы. – М.: Прогресс, 1978. – С. 95.

²⁷ Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – Л.: Советский писатель, 1971. – С. 300.

Date: 1st November-2025



belgisi, muallif psixikasining muayyan ifodasi, muallif tomonidan ongli tanlangan, asar yaxlitligini belgilaydigan estetik tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Bu nasriy asarlar, xususan, qissa janrida ham psixologik yo'nalish bo'y ko'rsatishi aksioma ekanligini isbotlaydi. Shaxsning ruhiy hamda bir vaqtning o'zida davr va jamiyat qarama-qarshiliklarini, konfliktlarini aks ettiruvchi ichki ziddiyatlari aynan psixologizm orqali yaqqol ochiladi, namoyon bo'ladi. Inson adabiyotda xarakter sifatida, alohida fe'l-atvor va muomala, hissiyot va fikr egasi bo'lgan tip sifatida namoyon bo'ladi.

Badiiy psixologizm – bir-biriga chegaradosh ilmiy va gumanitar bilim sohalarining (adabiyot, falsafa va psixologiya) “inson-dunyo” sistemasini anglash metodlari darajasidagi o'zaro dinamik ta'sirchan sohasidir. Adabiyotda psixologizm evolyusiyasining asosiy va umumiy tendensiyasi – bu tahlilda sintetik usul foydasiga analitik usuldan voz kechish, bevosita va rasional usullardan ko'ra bilvosita, ong osti sohalariga yanada sinchkovroq murojaatni ko'zda tutadigan murakkab yo'sinlardan foydalanishda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'z ishimizda biz “psixologizm” tushunchasidan foydalanish sarhadlarini badiiy tafakkur rivojining muayyan bosqichi – aniqroq aytadigan bo'lsak, realizmning uslubiy dominanti, uslubiy prinsipni belgilab beradigan unsur sifatida o'rgandik.

XX asrning so'nggi choragida o'zbek adabiyotida yaratilgan qissalar misolida yozuvchilar individual uslubi va ruhiy dalillash san'atini tadqiq etish jarayonida qissalarga xos yetakchi xususiyat – milliy o'ziga xoslik o'zbek xalqi tarixi bilan bog'liq voqeliklarda, shuningdek, xalq urf-odatlarini, milliy mentalitetga xos qadriyatlar, an'analarga hurmat, e'tibor kabi chizgilarda ko'rinishi aniqlandi. Qissalarda voqea-hodisalarning yagona konsentrasiyada, lo'nda ifodalanishi, psixologizm, detalning sezilarli darajada “tosh bosuvchanligi”, kompozisiya san'ati, hikoya qilish uslublari rang-barangligi kabi janriy-uslubiy o'zgarishlar o'zbek adabiyotining ajralmas mulkiga aylandi.

XX asr so'nggi choragi va undan keyin yaratilgan qissalar tarkibi, muammo va mavzular mazmuni yangilandi. Ularda inson ijtimoiy va ruhiy hayotini aks ettirishning yangicha badiiy imkoniyatlarini qidirish tendensiyasi ko'zga tashlanadi. Qahramonning yangicha konsepsiyasi o'z-o'zini faol taftish va tahlil qila oladigan, o'tmishning xato va kamchiliklarini yengib o'tishga qodir, ma'naviy-ruhiy dunyosi pok xarakterlarni taqozo qilar edi.

Umuman olganda, qissa janrida milliy mentalitet va milliy ruhiyatni tasvirlash prinsiplarining o'zgarganligi haqida gapirish mumkin: oddiy bayonchilik, xarakterga xos xususiyat va qirralarni navbati bilan sanab o'tish o'rnini qahramonlar xatti-harakatini psixologik jihatdan asoslash (motivirovka), alohida shaxs hayotini turli rakurslardan turib ko'p qirrali tasvirlash, zamon va jamiyat bilan aloqasini chuqurroq tahlil qilish egalladi. Qahramon statik holatidan chiqib, xarakterning rivojlanish tutumi, hayot qarama-qarshiliklari qarshisidagi qiyofasi yaqqol ko'rina boshladi. O'zbek qissalarining aksariyatida jamiyat qonuniyatlari alohida odamlar taqdiri orqali anglashiladigan, badiiy tadqiq markaziga bor fazilatu qusurlari bilan INSON qo'yiladigan bo'ldi.

Date: 1st November-2025

O'zbek adabiyotida qissa janri zamonaviy voqelikni, insonning obyektiv borliq, jamiyat, odamlar bilan har tomonlama munosabatini tadqiq qilish, shaxs ichki potensialini, uning ma'naviy mazmunini va ruhiy holatini ochishdek murakkab vazifani bajara oldi. Qissago'ylik janri talablaridan tashqari, qissa o'zbek romanchiligida ham faol qo'llanilayotgan qator muammolar, yo'nalishlar, badiiy tasvir prinsiplarini belgilashga urindi va ularni adabiyot sahniga olib chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T:Ma'naviyat,2008,140-bet.
2. Otamirzayeva Xulkar . Odil yoqubov romanlarida psixologik tasvir mahorati
3. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent; A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004
4. H. Umurov. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi monografiyasi.
5. N. Shodiyev Psixologik tahlil prinsiplari. O'zbek tili va adabiyoti. 1973-yil, 2-son 3-bet

